Ushbu maqola davlat moliyasi va xalqaro mehnat migratsiyasi sharoitida daromadlarni soliqqa tortishning eng maqbul usullarini o'rganishga bag'ishlangan. Xususan, maqolada mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy raqobat mavjud bo'lgan va ishchilar yuqori daromad yoki qulayroq soliq sharoitlarini izlab bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishi mumkin bo'lgan holatlar tahlil qilinadi. Bunday sharoitda samarali va adolatli soliq tizimini shakllantirish davlatlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Daromadlarni optimal soliqqa tortish nazariyasining asoslari ilk bor 1971-yilda iqtisodchi James Mirrlees tomonidan ishlab chiqilgan. Mirrlees o'z tadqiqotida hukumatning soliqqa tortish siyosatini fuqarolarning turli mehnat qobiliyatlari va daromad darajalari mavjud bo'lgan jamiyatda qanday tashkil etishi kerakligini o'rgangan. Biroq uning modeli yopiq iqtisodiyot sharoitiga asoslangan bo'lib, unda ishchilar boshqa mamlakatlarga ko'chib o'ta olmaydi, deb faraz qilingan.

Hozirgi globallashuv davrida esa mehnat resurslarining xalqaro harakatchanligi tobora ortib bormoqda. Malakali va yuqori daromadli ishchilar turli mamlakatlar o'rtasida erkinroq harakatlanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu holat davlatlarning soliq siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda optimal soliqqa tortish masalasi xalqaro mehnat migratsiyasi sharoitida qayta ko'rib chiqilmoqda. Xususan, Lehmann va hammualliflari (2014) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mamlakatlar o'rtasidagi soliq raqobati va ishchilarning migratsion qarorlari tahlil qilingan. Ular ishchilarning malakasi, daromad darajasi hamda boshqa mamlakatga ko'chib o'tish bilan bog'liq xarajatlar ularning joylashuv tanloviga qanday ta'sir qilishini o'rganganlar. Ushbu tadqiqotlar davlatlarning ishchi kuchini jalb qilish uchun soliq stavkalarini qanday belgilashlari mumkinligini tushuntirib beradi.

Mazkur maqola aynan shu nazariy yondashuvlarga asoslanadi va ularga yangi elementlarni qo'shadi. Tadqiqotda soliqlar ishchilarning migratsiya qilish haqidagi qarorlariga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, mamlakatlar malakali ishchilarni jalb qilish uchun qanday fiskal strategiyalarni tanlashi mumkinligi o'rganiladi. Tahlilda iste'molga nisbatan kvazichiziqli foyda funksiyasi (quasilinear-in-consumption preferences) qo'llaniladi. Ushbu yondashuv iqtisodiy adabiyotlarda keng qo'llanilgan bo'lib, Diamond (1998) kabi olimlarning ishlarida ham uchraydi.

Bundan tashqari, maqolada soliq siyosatining demokratik jamiyatlarda qanday shakllanishi ham tahlil qilinadi. An'anaviy optimal soliqqa tortish modellari odatda jamiyat manfaatlarini ko'zlovchi «xayrixoh ijtimoiy rejalashtiruvchi» (benevolent social planner) mavjud, deb faraz qiladi. Biroq real hayotda soliq siyosati siyosiy jarayonlar va saylovchilar tanlovi orqali shakllanadi. Shu sababli ushbu maqolada demokratik qaror qabul qilish mexanizmlari markaziy o'rin egallaydi. Tadqiqot Bierbrauer va hammualliflari (2013), shuningdek, Brett va Weymark (2016, 2017) tomonidan ishlab chiqilgan demokratik soliqqa tortish nazariyalariga tayanadi. Ushbu yondashuvlarda fuqarolar o'z manfaatlariga mos keladigan soliq siyosatlari uchun ovoz beradilar va yakuniy soliq tizimi siyosiy muvozanat natijasida shakllanadi.

Natijada maqola Lehmann va hammualliflarining xalqaro mehnat migratsiyasi haqidagi g'oyalari bilan Brett va Weymarkning demokratik soliqqa tortish nazariyasini birlashtiradi. Tadqiqot xalqaro mehnat harakatchanligi va yurisdiksiyalar hajmidagi nomutanosibliklar mavjud bo'lgan sharoitda saylovchilar qanday soliq siyosatini qo'llab-quvvatlashlarini tushuntiradi. Shu orqali maqola global iqtisodiyot sharoitida demokratik jamiyatlarda optimal soliqqa tortishning yangi nazariy asoslarini taklif etadi hamda fiskal siyosat va xalqaro mehnat migratsiyasi o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqliklarni yoritib beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot adolatsiz soliq raqobati hamda to'g'ridan to'g'ri demokratiya sharoitida optimal nochiziqli daromad solig'i tizimini tahlil qilish uchun davlat moliyasi modelini ishlab chiqadi. Modelda individlarning qarorlari ikki asosiy yo'nalishda ko'rib chiqiladi: ular qancha ishlashni va qaysi yurisdiksiyada yashashni tanlaydilar. Iqtisodiyot ikki mamlakatdan iborat, deb faraz qilinadi: Yurisdiksiya A va Yurisdiksiya B. Yurisdiksiya A mahalliy iqtisodiyotni ifodalaydi va unda ma'lum miqdordagi ishchi kuchi mavjud. Yurisdiksiya B esa xorijiy iqtisodiyot sifatida qaraladi hamda uning aholisi Yurisdiksiya A dagi aholiga nisbatan kamroq yoki teng bo'lishi mumkin.

Ishchilar bir-biridan uchta asosiy xususiyat bo'yicha farq qiladi: ularning kelib chiqishi, malaka darajasi va boshqa mamlakatga ko'chib o'tish bilan bog'liq xarajatlari. Model ushbu omillar o'rtasidagi bog'liqlikni cheklamaydi. Bu yondashuv real hayotdagi kuzatuvlarga mos keladi, chunki yuqori malakali shaxslar odatda migratsiya qilishga ko'proq moyil bo'ladilar va ular uchun ko'chib o'tish xarajatlari nisbatan past bo'lishi mumkin.

Modelda mehnat bozori mukammal raqobatlashgan, deb qabul qilinadi. Har bir ishchi o'zining malaka darajasiga mos ravishda ishlaydi va soliqqa tortilishdan oldingi daromad oladi. Soliq to'langandan keyingi iste'mol hajmi esa yashayotgan mamlakatdagi soliq tizimiga bog'liq bo'ladi. Tahlilda iste'molga nisbatan kvazichiziqli afzalliklar (quasilinear preferences) qo'llaniladi. Bu yondashuv shaxslarning mehnat taklifi va



iste'mol qarorlarini soddaroq tahlil qilish imkonini beradi. Natijada yuqori malakali ishchilar ko'proq ishlashga, yuqoriroq daromad olishga va ko'proq iste'mol qilishga intilishlari ko'rsatiladi.

Ishchi o'z mamlakatida qolgan taqdirda, qancha ishlashi kerakligi haqidagi qarorini amaldagi soliq tizimidan kelib chiqib qabul qiladi. Soliq tizimi samarali ishlashi uchun hukumat rag'batlantirish muammolarini hisobga olishi zarur. Xususan, hukumat shunday soliq tizimini ishlab chiqishi kerakki, ishchilar o'z malakasi haqida noto'g'ri ma'lumot berishga qiziqmasinlar. Agar bunday rag'batlar mavjud bo'lsa, yuqori malakali ishchilar o'zlarini past malakali qilib ko'rsatishga yoki, aksincha, ayrim hollarda malakasini oshirib ko'rsatishga urinishi mumkin. Shu sababli optimal soliq tizimi daromad va malaka o'rtasidagi tabiiy bog'liqlikni saqlab qolishi hamda yuqori malakali shaxslarning yuqoriroq daromad olishiga imkon yaratishi lozim.

Modelning muhim jihatlaridan biri migratsiya qarorlarini hisobga olishidir. Har bir shaxs qaysi mamlakatda yashashni tanlashda o'zining umumiy farovonligini baholaydi. Yurisdiksiya A fuqarosi Yurisdiksiya B ga ko'chib o'tadi, agar u yerda yashash unga ko'proq foyda keltirsa va bu foyda migratsiya xarajatlaridan yuqori bo'lsa. Har ikki mamlakat ishchilarining migratsiya qarorlari natijasida har bir yurisdiksiyadagi aholi soni endogen ravishda shakllanadi. Agar bir mamlakat nisbatan qulayroq iqtisodiy va fiskal sharoitlarni taklif etsa, u ko'proq ishchi kuchini jalb qiladi. Aksincha, yuqori soliq yuklari yoki noqulay siyosatlar ishchilarning boshqa mamlakatlarga ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Har bir hukumat muvozanatlashgan budget chekloviga amal qiladi. Bu shuni anglatadiki, davlat xarajatlari yig'ilgan soliq tushumlaridan oshib ketmasligi kerak. Modelda hukumat jamiyat farovonligini maksimal darajada oshirishga intiluvchi «xayrixoh rejalashtiruvchi» sifatida emas, balki demokratik siyosiy jarayonlarning natijasi sifatida qaraladi. Soliq siyosati to'g'ridan to'g'ri demokratiya mexanizmi orqali shakllanadi. Har bir fuqaro o'ziga ma'qul bo'lgan soliq tizimini taklif qilish huquqiga ega va ko'pchilik tomonidan qo'llab-quvvatlangan taklif g'olib bo'ladi. Natijada har bir mamlakatda boshqa mamlakatning siyosatini hisobga olgan holda shakllanadigan siyosiy-fiskal muvozanat yuzaga keladi. Ushbu muvozanatda tanlangan soliq tizimi saylovchilarning kollektiv tanlovini aks ettiradi va xalqaro mehnat migratsiyasi hamda soliq raqobati sharoitida amal qiladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### 1. Fiskal umumiy resurslar ustidagi ziddiyat

Soliq tizimini loyihalash murakkab jarayondir. U turli manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Demokratik jamiyatlarda soliq tizimlari oddiy emas; ular daromadga bog'liq ravishda o'zgaruvchi (nolinear) tuzilmalarga ega bo'ladi. Ayrimlar yaxshi soliq tizimi jamiyat farovonligini maksimal darajada oshirishi kerak, deb hisoblaydi, boshqalar esa saylovchilar nimani tanlashini asosiy mezon deb ko'radi.

Ushbu maqola demokratik sharoitda nolinear soliq tizimlarining qanday ishlashini tahlil qiladi. Unda odamlarning ishlash qarorlari va soliq to'lash xulq-atvori o'rganiladi. Asosiy muammo shundaki, soliq stavkalarining o'zgarishi mehnat taklifiga ta'sir qiladi va bu davlat daromadlarini ham o'zgartiradi. Soliq tizimi murakkablashgani sari saylovchilar yagona optimal yechim bo'yicha kelisha olmasligi mumkin.

Soliq tizimlarining barqarorligini tushunish uchun uchta nazariy yondashuv ko'rib chiqiladi:

Nomzodlar faqat saylovchilar afzal ko'rgan siyosatni taklif qiladi;

Ba'zi soliq siyosatlari boshqalardan yaxshiroq (normativ ustunlikka ega);

Siyosiy jarayon vaqt davomida evolyutsiyalanadi.

Bu yondashuvlarning barchasi kuchli o'rta sinf soliq tizimining barqarorligini ta'minlashda markaziy rol o'ynashini ko'rsatadi.

### 2. Nolinear soliqlarning analitik mexanikasi

Soliq qarorlarini soddalashtirish uchun biz quyidagi umumiy soliq funksiyasidan foydalanamiz:

$$T(y) = a + \tau y + \gamma y^2$$

yoki alternativ shaklda:

$$T(y) = a + (\tau + \gamma)y$$

bu yerda:

**a** — har bir shaxsga beriladigan kafolatlangan transfer (*lump-sum transfer*);

**$\tau$**  — bazaviy (*flat*) soliq stavkasi;

**$\gamma$**  — daromadga bog'liq progressivlik/regressivlik parametri.

#### Interpretatsiya:

Agar  $\gamma > 0$  bo'lsa, daromad oshgani sari soliq stavkasi ham oshadi (progressiv tizim).

Agar  $\gamma < 0$  bo'lsa, daromad oshgani sari soliq stavkasi kamayadi (regressiv tizim).

Davlat budjeti muvozanati quyidagi shart bilan ta'minlanadi:

$$\int T(y) f(y) dy = a$$

ya'ni yig'ilgan soliqlar to'liq qayta taqsimlanadi.



Aholi turli malaka darajasiga ega bo'lib, daromadlar  $y_i$  sifatida ifodalanadi. Soliq tizimi mehnat taklifiga ta'sir qiladi:

progressivlik ortsa ( $\gamma > 0$ ), yuqori malakali shaxslar mehnat taklifini kamaytiradi;

regressivlik ortsa ( $\gamma < 0$ ), ular ko'proq ishlaydi.

3. Institutsonal cheklovlar va strategik yechimlar

Turli daromad guruhlari turli soliq tizimlarini afzal ko'radi, bu esa siyosiy tanlovni murakkablashtiradi. Ushbu jarayonni tushunish uchun uchta siyosiy model ko'rib chiqiladi:

Median voter modeli: siyosiy nomzodlar saylovchilar talabiga moslashadi va ekstremal soliq siyosatlarini chiqarib tashlanadi;

Siyosiy filtratsiya modeli: faqat normativ jihatdan «yaxshi» deb topilgan soliq tizimlari tanlanadi;

Dinamik siyosiy evolyutsiya modeli: siyosiy muvozanatlar vaqt o'tishi bilan asta-sekin o'zgaradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki:

yuqori daromadli (malakali) guruhlar odatda past va regressiv soliqlarni afzal ko'radi;

o'rta sinf esa ma'lum darajada progressivlikni qo'llab-quvvatlaydi.

4. Simulyatsion natijalarni baholash

Turli daromad (malaka) taqsimotlari asosida simulyatsiyalar o'tkazildi. Natijalar quyidagi jadvalda berilgan (1-jadval).

1-jadval.

Turli malaka taqsimotlari sharoitida progressiv soliqqa tortishni qo'llab-quvvatlash darajasi va siyosiy muvozanat natijalari<sup>1</sup>

Malaka taqsimoti	Beta( $\alpha, \beta$ )	“Bliss winner” ( $a^m$ )	UC Progr.%	BP Progr.%	Kramer Progr.%
Bir tekis	(1,1)	0.275	64.8%	76.2%	45.4%
Chiziqli kamayuvchi	(1,2)	-0.075	0%	0%	0%
Simmetrik	(2,2)	0.250	85.0%	100%	100%
O'rtacha skew	(2,4)	0.500	79.2%	93.9%	66.7%
Kuchli o'rta sinf	(2.5,2.5)	0.225	100%	100%	100%
Zich o'rta sinf	(3,3)	0.225	100%	100%	100%
Yuqori malaka skew	(3,5)	0.500	100%	100%	100%

Izoh: UC Progr.%, BP Progr.% va Kramer Progr.% — bu muvozanat yechimlar ichida progressiv soliq tizimlari ulushi.

Endi simulyatsiya natijalarini ko'rib chiqamiz. Jadval aholi tarkibida malaka (*skill*) darajalari turlicha taqsimlanganda qanday natijalar yuzaga kelishini ko'rsatadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, aholining malaka bo'yicha taqsimlanishi progressiv soliqqa tortish tizimining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, o'rta sinf progressiv soliqlar joriy etilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sinovdan o'tkazilgan barcha ssenariylarda o'rta sinf ulushi qanchalik katta bo'lsa, progressiv soliqqa tortish tizimining yuzaga kelish ehtimoli ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Birinchi navbatda, aholining har bir a'zosi istalgan malaka darajasiga ega bo'lish ehtimoli teng bo'lgan holatni ko'rib chiqamiz. Bu vaziyatda progressiv soliqlar ayrim hollarda yuzaga keladi, biroq doim ham emas. Hisoblash usuliga qarab, progressiv soliqqa tortish ehtimoli 45 foizdan 76 foizgacha bo'ladi. Bu mantiqan tushunarli, chunki biror guruh mutlaq ustunlikka ega bo'lmaganda turli xil soliq tizimlari o'rtasida muvozanat shakllanadi.

Keyingi ssenariyda aholining katta qismi past malaka darajasiga ega, deb faraz qilinadi. Bu holatda qiziqarli natija kuzatiladi: regressiv soliqqa tortish tizimi barcha hollarda ustunlik qiladi. Dastlab bu g'ayrioddiy tuyulishi mumkin, chunki odatda past daromadli qatlam progressiv soliqlarni qo'llab-quvvatlaydi, deb hisoblanadi. Biroq model shuni ko'rsatadiki, regressiv soliqlar sharoitida yuqori daromadli shaxslar ko'proq mehnat qiladi va natijada davlatga ko'proq soliq to'laydi. Bu esa past daromadli guruhlarining oladigan transfertlari yoki ijtimoiy manfaatlarini oshirishi mumkin.

Aholi tarkibi muvozanatlashib, o'rta sinf ulushi ortib borganda progressiv soliqlarning ulushi ham sezilarli ravishda oshadi. Ayrim ssenariylarda progressiv soliqlar 85 foiz hollarda, boshqalarida esa 100 foiz hollarda

1 Hindriks, J. (2001). Is there a demand for regressive taxation? Journal of Public Economic Theory, 3(3), 351–368.



yuzaga keladi. Bu natija o'rtasinf kengaygani sari siyosatchilar aynan shu guruh manfaatlarini ko'proq hisobga olishlarini va buning natijasida progressiv soliqlarni qo'llab-quvvatlash kuchayishini ko'rsatadi.

Aholi tarkibi yanada muvozanatlashgan holatlarda ham progressiv soliqlar yuqori ulushda saqlanib qoladi, biroq avvalgi ssenariylarga nisbatan biroz pasayadi. Buning sababi shundaki, o'rtasinf soni ortgan bo'lsa-da, yuqori daromadli guruhlar ham sezilarli ulushga ega bo'lib qoladi va ular progressiv soliqlarni har doim ham qo'llab-quvvatlamasligi mumkin.

O'rtasinf juda katta ulushni tashkil etadigan ssenariylarga kelganda esa muhim natija kuzatiladi. Bunday holatlarda progressiv soliqqa tortish barcha hisoblash usullarida g'olib chiqadi. Bu esa ma'lum bir «burilish nuqtasi» (*tipping point*) mavjudligini anglatadi: o'rtasinf yetarlicha katta bo'lganda progressiv soliqlar jamiyat uchun odatiy va barqaror natijaga aylanadi.

Ushbu natijalardan kelib chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, progressiv soliqqa tortish tizimining shakllanishi eng kambag'al qatlamdan ko'ra ko'proq o'rtasinfning hajmi va siyosiy ta'siriga bog'liqdir. O'rtasinf kichik yoki ichki jihatdan bo'lingan bo'lsa, regressiv soliqlarni saqlab qolish osonroq bo'ladi. Aksincha, o'rtasinf son jihatdan katta va siyosiy jihatdan kuchli bo'lsa, progressiv soliqqa tortish tizimi ustunlik qiladi. Demak, progressiv soliqlarning muvaffaqiyatli joriy etilishi va saqlanib qolishida o'rtasinf asosiy omil hisoblanadi.

#### 5. Natija: o'rtasinfning markaziy roli

Simulyatsiya natijalari demokratik jamiyatlarda soliq tizimining shakllanishida va uning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda o'rtasinf hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Mavzu davomida turli malaka taqsimotlari ostida saylovchilarning afzalliklari va siyosiy muvozanat natijalari tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, progressiv soliqqa tortishning siyosiy jihatdan qabul qilinishi nafaqat daromadlar tengsizligi darajasiga, balki aholining malaka va daromad bo'yicha qanday taqsimlanganiga ham bevosita bog'liq.

Aholining katta qismi past malakali guruhlarda jamlangan holatlarda, xususan, **Beta(1,2)** taqsimotida progressiv soliqqa tortishni qo'llab-quvvatlash deyarli kuzatilmaydi. Bu holatda median saylovchi nisbatan past daromadli bo'lsa ham, iqtisodiy manfaatlar va siyosiy koalitsiyalar regressiv yoki progressiv bo'lmagan soliq tizimlari tomon og'adi. Simulyatsiya natijalariga ko'ra, ushbu taqsimot ostida barcha uchta siyosiy muvozanat konsepsiyasi — **Uncovered Set**, **Bipartisan Politics** va **Kramer muvozanati** — progressiv soliqqa tortishni qo'llab-quvvatlamaydi. Natijada siyosiy muvozanat regressiv soliq tizimi tomon yaqinlashadi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, aholining muhim qismi o'rtasinf malaka va o'rtasinf daromad guruhlarida to'plangan taqsimotlarda progressiv soliqqa tortishga bo'lgan siyosiy qo'llab-quvvatlash keskin ortadi. Ayniqsa, **Beta(2.5,2.5)**, **Beta(3,3)** va **Beta(3,5)** taqsimotlarida barcha muvozanat konsepsiyalari bo'yicha progressiv soliqqa tortishni qo'llab-quvvatlash darajasi 100 foizga yetadi. Bu natija o'rtasinfning demokratik qaror qabul qilish jarayonidagi strategik pozitsiyasini aks ettiradi.

O'rtasinf vakillari odatda ikki qarama-qarshi maqsad o'rtasida muvozanat izlaydi. Bir tomondan, ular davlat tomonidan taqdim etiladigan jamoat xizmatlari, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya dasturlarining moliyalashtirilishini qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchi tomondan esa, ular haddan tashqari yuqori soliq yukining o'z daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini istamaydi. Shu sababli o'rtasinf mutlaq qayta taqsimlashni ham, mutlaq regressivlikni ham qo'llab-quvvatlamaydi. Ularning afzalliklari odatda mo'tadil progressiv soliqqa tortish tizimi tomon yo'naladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, o'rtasinf demokratik siyosiy tizimda muvozanatlashtiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Agar jamiyatda o'rtasinf son jihatdan katta va siyosiy jihatdan faol bo'lsa, u progressiv soliqqa tortishni qo'llab-quvvatlash orqali soliq tizimini adolatliroq va barqarorroq yo'nalishga olib boradi. Aksincha, o'rtasinf zaif yoki son jihatdan kichik bo'lgan jamiyatlarda siyosiy qarorlar ko'proq ekstremal manfaat guruhlari tomonidan shakllantiriladi va natijada regressiv yoki kamroq qayta taqsimlovchi soliq tizimlari yuzaga kelishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Odamlar daromad va soliqqa oid masalalar bo'yicha ovoz berganlarida siyosiy jarayonlar juda murakkablashishi mumkin. Nazariy jihatdan turli xil natijalar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Biroq amaliyotda demokratik saylovlar ko'pincha ma'lum va barqaror qonuniyatlarga amal qiladi. Ushbu maqolada siyosiy raqobatning uch xil muvozanat konsepsiyasi yordamida soliq siyosatining shakllanish jarayoni tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, soliq tizimining qanday ko'rinish olishi, avvalo, jamiyatdagi aholi tarkibiga, xususan, daromad va malaka taqsimotiga bog'liq.

Kompyuter simulyatsiyalari orqali turli ssenariylar modellashtirildi. Natijalar progressiv soliqqa tortish tizimining siyosiy jihatdan barqaror bo'lishida o'rtasinf hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Agar jamiyatda o'rtasinf son jihatdan katta bo'lsa, u o'z manfaatlariga mos keladigan progressiv soliqqa tortish tizimini qo'llab-quvvatlaydi. Hatto yuqori daromadli guruhlar regressiv yoki kamroq progressiv soliq tizimini afzal ko'rgan taqdirda ham, kuchli o'rtasinf siyosiy jarayonda ustun mavqega ega bo'lib qoladi.



Aksincha, o'rta sinfning ulushi kichik bo'lgan jamiyatlarda yuqori va past daromadli guruhlar o'z manfaatlarini asosida koalitsiya tuzib, o'rta sinf uchun qulay bo'lgan soliq siyosatiga qarshi chiqishlari mumkin. Biroq o'rta sinfning soni ortib borgan sari bunday koalitsiyalar samaradorligini yo'qotadi. O'rta sinf vakillari odatda adolatliroq soliq yukini qo'llab-quvvatlaydi va yuqori daromadli guruhlardan nisbatan ko'proq soliq undirilishini ma'qul ko'radi. Shu bilan birga, ular o'zlariga haddan tashqari katta soliq yukining tushishini ham istamaydilar.

Shunday qilib, maqola natijalari demokratik jamiyatlarda progressiv soliqqa tortish tizimining barqarorligi va saqlanib qolishi bevosita o'rta sinfning mavjudligi va siyosiy ta'sir kuchiga bog'liqligini ko'rsatadi. O'rta sinf o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish orqali soliq tizimining adolatliroq shakllanishiga xizmat qiladi. Maqolada qo'llanilgan barcha siyosiy muvozanat konsepsiyalari bir xil xulosaga olib keldi: progressiv soliqqa tortishning eng muhim siyosiy tayanchi o'rta sinfdir. Aynan o'rta sinf progressiv soliqqa tortishni vaqtinchalik siyosiy qarordan ko'ra demokratik tizimning barqaror va uzoq muddatli elementi sifatida saqlab qoladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. De Donder, P., & Hindriks, J. (2002). *The Politics of Progressive Income Taxation with Incentive Effects*. Mimeo, University of Toulouse and Queen Mary, University of London.
2. Hindriks, J. (2001). Is there a demand for regressive taxation? *Journal of Public Economic Theory*, **3**(3), 351–368.
3. Lehmann, E., Simula, L., & Trannoy, A. (2014). Tax Me If You Can! Optimal Nonlinear Income Tax between Competing Governments. *Quarterly Journal of Economics*, **129**(4), 1995–2030.
4. Kramer, G. H. (1977). A dynamical model of political equilibrium. *Journal of Economic Theory*, **16**(2), 310–334.
5. Laffond, G., Laslier, J. F., & Le Breton, M. (1993). The bipartisan set of a tournament game. *Games and Economic Behavior*, **5**(1), 182–201.
6. Romer, T. (1975). Individual welfare, majority voting, and the properties of a linear income tax. *Journal of Public Economics*, **4**(2), 163–185.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>